

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI BOSHQARUVINI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Dustova Ozoda Madikulovna

Ilmiy rahbar: Davlatov Suxrob Saidjonovich

### Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarini strategik boshqarishning nazariy-konseptualasoslari, universitet darajasida strategik boshqaruvning asosiy tamoyillari va uning afzalliklari qisqacha tahlil qiladi. OTMLar faoliyati samaradorligini oshirish va maqsadlariga erishish uchun muqobil strategiya ishlab chiqishning asosiy bosqichlariga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** boshqaruv tamoyillari, strategiya, strategik boshqaruv, OTMLarni strategikrejalashtirish, raqobatdosh ustunlik, ta'lim bozori.

### KIRISH

Boshqaruv tushunchasi keng ma'noni ifodalab, uni mohiyatan yagona ta'rifga sig'dirishning imkoni yo'q. Shuningdek, boshqaruv konsepsiyasiga turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, uni turli kontekstda turli ma'nolarda ishlatish mumkin. Xususan, oliy ta'lim kontekstida boshqaruv deganda OTMLarga qarorlar qabul qilish hamda OTM siyosatini joriy etish, amalga oshirish hamda uning to'g'ri amalga oshirilishini muntazam ravishda nazorat qilish imkonini beruvchi rasmiy va norasmiy tuzilmalar tushuniladi [1].

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshqaruv manfaatlarni ifodalash va maqsadlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lganligi sababli, u kim qachon nima haqida qaror qabul qilishi haqidagi savollarni tug'diradi; oliy ta'limda esa bu boshqaruvning ikki darajasini, ya'ni: boshqaruvning ichki va tashqi darajalarini yoki o'lchovlarini kiritadi. Ichki yoki institutsional boshqaruv bu tashkilotlarning bir maromda ishlashiga xizmat qiladigan va vakolat doirasini, qaror qabul qilish jarayonlari va siyosatini, kadrlar va moliyalashtirish mexanizmlarini tashkil etuvchi muassasalar ichidagi tashkiliy tuzilmalarni anglatadi. Tashqi boshqaruv, ko'p hollarda, oliy ta'lim muassasalarining makro



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

tizimi yoki davlat nazoratini nazarda tutadi va ular ushbu muassasalar bo'ysunadigan qonunlar, qarorlar, moliyalashtirish tartiblari va baholashlarni o'z ichiga oladi [2].

Ta'lim tizimini rivojlantirish mamlakatda har jihatdan sifatli ta'lim xizmatlari ko'rsatilishiga, raqobatbardosh kadrlar yetishib chiqishiga va yetuk intellektual kapitalning shakllantirilishiga xizmat qiladi. Bu borada tizimning va ta'lim muassasalarining samarali boshqaruv ostida bo'lishi maqsadga olib boruvchi eng to'g'ri strategiyaning tanlanishi, bu yo'ldagi jarayonlarning bevosita ishtirok va qat'iy nazorat ostida amalga oshirilishi va, pirovardida, natijaviylikni ta'minlaydi. Shuningdek, samarali boshqaruv tizimga sarflangan mablag'larning oqilona taqsimlanishi, maqsadli sarflanishi hamda kelgusida o'zini oqlashining asosiy shartlaridan biridir. Bu jihat, ayniqsa, ta'lim tizimi asosan budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan jamiyatlarda g'oyat muhim. Biroq shuni ham hisobga olish kerakki, boshqaruvda samaradorlik tushunchasi va uni baholash masalasi munozarali bo'lib, ta'limda boshqaruv asosan ijtimoiy munosabatlarda aks etgani sababli ko'proq miqdor ko'rsatkichlariga emas, sifat ko'rsatkichlariga tayanib tahlil qilish va baholash talab etiladi. Sifat ko'rsatkichlarini tanlab olishda esa boshqaruv faoliyatining funksional jihatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni hisobga olish zarur. Shu o'rinda, ta'lim muassasalarida boshqaruvning samaradorligiga ta'sir etuvchi bir qator omillarni keltirib o'tish joiz. Bular [3]:

- qo'yilgan maqsadlarning sifati;
  - maqsadlarni real amalga oshirish imkoniyati, ya'ni, ularning qo'yilgan maqsadga erishish vositalari bilan muvofiq kelishi;
  - joriy holatni to'g'ri baholash;
  - muassasa rahbari va xodimlarini qo'yilgan maqsadlar yo'lida motivatsiyalash;
  - o'quv muassasasi rahbarining salohiyati va shaxsiy sifatlari;
  - qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun ajratilgan resurslarning miqdori va sifati;
  - boshqaruv qarorlarini qabul qilishda davlat va jamiyat hamda kollegial boshqaruv organlarining ishtiroki.
- Bular universal omillar bo'lib, istalgan ta'lim muassasining boshqaruv samaradorligiga bir xilda ta'sir qiladi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

Bugungi oliy ta'lim tizimini isloh qilishga, o'quv jarayonlarini yuqori saviyada tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj OTMLar faoliyatida innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda yanada samarali boshqaruv tizimlarini qo'llashni taqozo qiladi.

Strategik menejment — bu tashkilotning maqsad va vazifalarini belgilash, o'z faoliyatini mijozlar talablariga yo'naltirish, o'zgarishlarga moslashuvchan tarzda javob berish va tashkilotda vaqti-vaqti bilan atrof-muhitdan bo'ladigan turli chaqiriqlarga munosib javob beradigan va raqobatdosh ustunliklarga erishishga imkon yaratadigan ma'lum o'zgarishlarni amalga oshirish bilan bog'liq. Raqobatdosh ustunliklar tashkilotga uzoq muddatli istiqbolda omon qolish va maqsadlariga erishish imkoniyatini beradi.

Oliy ta'lim muassasasining strategik boshqaruvi strategik qarorlarga asoslanadi, ular orasida eng muhimlari [4]:

- innovatsiyalarni joriy etish (yangi ta'lim va tadqiqot xizmatlari; boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik, huquqiy va boshqa innovatsiyalar);
- tashkiliy o'zgarishlar (tashkiliy tuzilmadagi o'zgarishlar, tashkil etish va mehnatgahaq to'lashning yangi shakllari, tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlar va boshqalar);
- yangi bozorlarga chiqish;
- universitet tarkibiy tuzilmasini qayta qurish (qayta tashkil etish);
- milliy va mintaqaviy innovatsion infratuzilmaning bir qismi sifatida universitet innovatsion infratuzilmasini rivojlantirish (startaplar, intellektual mulk markazlari, biznes inkubatorlar, texnoparklar va boshqalar).

## XULOSA VA MUNOZARA

Universitetdagi zamonaviy strategik menejment oliy ta'lim muassasasining uzoq muddatli rivojlanishini belgilovchi strategik boshqaruv qarorlari, shuningdek, universitetning tashqi muhitdagi o'zgarishlarga tezkor javob berishini ta'minlaydigan aniq harakatlar majmui sifatida belgilanadi. Bu xatti-harakatlar, o'z navbatida, strategik manevrlar, maqsadlarni qayta ko'rib chiqish va rivojlanishning umumiy yo'nalishini moslashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Strategik menejment korporativ boshqaruv rivojlanishining to'rtinchi va eng yuqori darajasi bo'lib, u budjetlashtirish, uzoq muddatli rejalashtirish, strategik rejalashtirish va strategik boshqaruvni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u innovatsiyalar, axborot, funksional, tartibga solish va operativ boshqaruv bilan bir qatorda umumiy



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

boshqaruvning bir qismidir.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Hosni, Djehane, 2004. Rivojlanayotgan mamlakatlarda oliy ta'lim: Oliy ta'lim va jamiyat bo'yicha ishchi guruh// Vashington, D.C.: Jahon banki, 2010, 135 pp.
2. Mulinge, M. M., Arasa, J. N., Wawire, V. (2017). Keniyadagi universitet boshqaruvida talabalarning ishtiroki holati: davlat va xususiy universitetlar misoli. Dakar, Senegal: CODESRIA. doi: <https://doi.org/10.2307/j.ctvh8r378>
3. Balobanov A. E. Universitet rivojlanishini strategik rejalashtirish / A. E. Balobanov, A. K. Klyuev // Universitet boshqaruvi: amaliyot va tahlil. - 2002. – No 2(21). 19-27-betlar.
4. Kennedi, Rid. (2020) Strategik menejment. Blacksburg, VA: Virginia Tech nashriyoti. <https://doi.org/10.21061/strategicmanagementCCBYNC-SA3.0>, p. 11.
5. Grudzinskiy A. O. Universitetni strategik boshqarish: rejadan innovatsion missiyaga / A. O. Grudzinskiy // Universitet boshqaruvi: amaliyot va tahlil. - 2014. – No 1(29). 9-20-betlar.
6. Egorshin A.P., Gorbunova E.Yu. Universitetni strategik boshqarish kontseptsiyasi // Rossiyada oliy ta'lim. – 2017. – No 10. – B. 31–39.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

